

5. Piaget J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 1950.
6. Talyzina N. F. Upravlenie protsessom usvoeniya znaniy. Moskva: MGU, 1984.
7. Lerner I. Ya. Didakticheskie osnovy metodov obucheniya. Moskva: Pedagogika, 1981.
8. Selevko G. K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. Moskva: Narodnoe obrazovanie, 1998.
9. Shtoff V. A. Modelirovanie i filosofiya. Moskva: Nauka, 1966.
10. Daxin A. N. Pedagogicheskoe modelirovanie. Moskva: Pedagogika, 2003.
11. Suyunova N.A. Foreign Experiences in Developing Students' Logical and Critical Thinking through Digital Technologies. International Journal of Pedagogics (ISSN 2771-2281). Volume 06, Issue 01, January 2026.
12. Suyunova N.A. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vositalari va usullari. Tafakkur ziyosi, 2025-yil, 3-nashr. JDPU tahririy-nashriyot bo'limi, 243-246-betlar.
13. Wiley D.A. (2000). Connecting learning objects to instructional design theory: A definition, a metaphor, and a taxonomy. In: Wiley D.A. (Ed.), The Instructional Use of Learning Objects. Bloomington, IN: Association for Educational Communications and Technology

INGLIZ TILINI O'QITISHDA TANQIDIY FIRKLASHNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR TAMOYILLARI VA YONDASHUVLARI

Tuychiyev Adxamjon Tuhtaboyevich

Namangan Impuls tibbiyot instituti

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0009-0000-4699-1688>

Tel: +99899 510 7175 E-mail: adham.tuychiev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishimizda talabalarga tanqidiy fikrlashning muayyan ko'nikmalarini o'rgatish, ingliz tilini o'qitish jarayonida turli xil faoliyatlarni tashkil etish asoslari, ya'ni tizimli, kognitiv-kommunikativ, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ustuvor sanaladigan kommunikativlik, matnga asoslanganlik, bir-birini to'ldirish, o'quv faoliyatidan hayotiy faoliyatga o'tish va refleksiya tamoyillari aniqlangan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, raqamli davr, tizimli, tamoyil, yondashuv.

Аннотация. Данная работа охватывает основы обучения студентов определенным навыкам критического мышления, организации различных видов деятельности в процессе обучения английскому языку, а именно, систематического, когнитивно-коммуникативного, личностно-ориентированного и активного подходов. Также в статье определены и проанализированы принципы коммуникации, тексто-ориентированности, дополненности, перехода от образовательной деятельности к жизнедеятельности и рефлексии, которые считаются приоритетными в развитии критического мышления.

Ключевые слова: критическое мышление, цифровая эпоха, систематический, принцип, подход.

Abstract. This research work covers the basics of teaching students' certain skills of critical thinking, organizing various activities in the process of teaching the English language, namely, systematic, cognitive-communicative, person-oriented, and active approaches. Also, the article identifies and analyzes the principles of communication, text-centered, complementarity, transition from educational activity to life activity, and reflection, which are considered priority in the development of critical thinking.

Keywords: critical thinking, digital age, systematic, principle, approach.

Ma'lumki, bugungi raqamli dunyoda texnika oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitish jarayonida tanqidiy fikrlashni hisobga olish juda ham muhim, aks holda real hayotda yuz berayotgan voqea-hodisalarni qabul qilish va tushunish murakkablashishi yoki sohaga doir mos materiallardan foydalanilmasa kelgusida kasbiy muvaffaqiyatga erishishda va rivojlanishda oqsash kuzatilishi mumkin [15]. Amerikalik olimlar S.Van Duzer va TS.Florezning so'zlariga ko'ra, aynan chet tillar o'qituvchilari shunchaki grammatik qoidalarni o'rgatish bilan cheklanmay, ishning tub mohiyatini chuqurroq tushunishga hissa qo'shmoqlari va amaliy yordam bermoqlari lozim [1].

Tanqidiy fikrlashning mohiyatini tahlil qilish negizida talabaga tanqidiy fikrlash imkonini beruvchi yondashuvlar guruhi o'rganib chiqildi. Eng muhim yondashuvlardan biri – ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalashga yo'naltirilganlikdir. Buning uchun ta'lim jarayoni aniq hayotiy vazifalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, talabalar real hayotda duch keladigan muammolarni hal qiladilar. Voqelikka yo'naltirilgan ijtimoiy munosabat jamoada ishlash ko'nikmalari, ochiq jamiyat yaratish va unda yashashga qodir shaxsda fuqarolik tamoyilini

shakllantirish uchun muhim shartdir. Mazkur tadqiqotda quyidagi yondashuvlarni ko‘rib chiqamiz.

Ta‘lim jarayoniga tizimli yondashuv (Systematic Approach) ning obyektiv zaruriyati mahalliy va xorijiy ta‘lim didaktikasida ancha vaqt oldin asoslab berilgan va ochib berilgan. Ingliz tilini o‘rganish jarayonida o‘quv materialini taqdim etishning tizimli va tizimli-funksional uyg‘unligi nafaqat imkoniyat, balki obyektiv zaruriyat hamdir:

- “Ingliz tili” amaliy o‘quv kursini o‘quv materiallarisiz tizimlashtirmasdan va tuzmasdan dasturni amalga oshirish mumkin emas. Tanqidiy fikrlashni o‘rgatuvchi o‘qituvchi o‘quv materialini tizimlashtirish, uning qismlari o‘rtasida strukturaviy-funksional bog‘liqliklarni o‘rnatish bo‘yicha sezilarli darajada katta hajmdagi tayyorgarlik ishlarini olib boradi;

- tizimlashtirilgan o‘quv materialida uning qismlari o‘rtasidagi strukturaviy-funksional munosabatlar aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, talabalar tomonidan yaxshiroq idrok etiladi va o‘zlashtirilishi oson kechadi. Bunday o‘quv material bilan talaba alohida qismlarga va umuman tizimga bir nechta va oson kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘quv materialini idrok etishning tizimlili ham yaxshilanadi. Tizimlashtirilgan material insonning xotirasida bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan g‘oyalar to‘plamiga qaraganda oson va uzoq muddat saqlanadi;

- o‘rganilayotgan materialni tizimlashtirish, uning qismlari o‘rtasidagi strukturaviy-funksional munosabatlarni ochib berish tanqidiy fikrlashni, umuman olganda intellektni rivojlantirishga yordam beradi.

Kognitiv-kommunikativ yondashuv (Cognitive and Communicative Approach) quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- oriyentir vazifasini bajaruvchi o‘quv-kognitiv faoliyatdagi bilimlar va turli guruhlardagi o‘quv, tilga oid, kognitiv, reflektiv qobiliyatlar va kognitiv strategiyalarni ishlab chiqish – bilimlar asosida amalga oshiriladi;

- talabalar tomonidan mustaqil tarzda bilish strategiyalarini tanlash orqali bilim, ko‘nikma, kognitiv qobiliyat va kognitiv (bilish) faoliyat usullari asosida amalga oshiriladigan kognitiv vazifalarni hal qiladi;

- faoliyatning umumlashtirilgan texnika va usullarini shakllantirish – talabalarga muammolarni hal qilish va bilish faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirish imkonini beradigan kognitiv strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi;

Shaxsga (yoki talabaga) yo‘naltirilgan yondashuv (A person-centered Approach) O.U.Avlayev [3], J.Cornelius-White [4], N.A.Alekseyev [7] va boshqalar tomonidan aniqlangan va tavsiflangan

bo‘lib, talabani kognitiv faoliyat subyekti sifatida shakllantirishni o‘z ichiga oladi, bu – o‘ziga xos xususiyatlar majmui bo‘lib, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Mualliflar talaba shaxsining asosiy yo‘nalishlarda rivojlanishini ta‘minlaydigan navbatdagi taraqqiyotga tayyorligini uning muhim jihatlaridan biri sifatida qaralishi lozim, deb ta‘kidlaydilar: 1) motivatsiya va motivatsion tayyorgarlik; 2) egallangan bilim va shaxsiy faoliyat refleksiya; 3) tizimli bilim; 4) faoliyatli vosita va usullarni takomillashtirish.

Faoliyatli yondashuv (Activity-based Approach) haqida psixologiya va pedagogikada T.Harfield [4], N.T.Omonov [5], A.Tuychiev [6] lingvodidaktikada I.A.Zimnaya [12], V.I.Kapinos [13] va boshqalar ajratib ko‘rsatganlar. Faoliyatli yondashuv bilim va qadriyat yo‘nalishlarini yangilashni, talabalarni faol kognitiv faoliyatga jalb qilish orqali ingliz tilini o‘qitish va ta‘lim jarayonida yangi tajribalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Xorijiy til – kognitiv faoliyatni amalga oshirish vositasi, kommunikativlik, o‘zaro ta‘sir, fikrlash va ularning vazifalari bilan bog‘liq bo‘lgan inson bilimining turli sohalarida bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallash vositasi sifatida ishlatiladi. Bunga munosabatlarni tushunish va o‘rnatish, hissiy, refleksiya, motivatsiya, muvofiqlashtirish, o‘zaro ta‘sir va boshqa aloqa turlari kiradi. Tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirish jarayonining asoslarini belgilab, metodologiya talablariga rioya qilgan holda, quyidagi tamoyillari tahlil qilindi.

Tamoyil (Principle) deganda biz “uslublar, texnikalar va boshqa o‘qitish vositalarini tanlashni belgilaydigan boshlang‘ich nazariy qoidalarni” tushunamiz [14].

Kommunikativlik tamoyili (The Principle of Communication). Nutq va nutq faoliyatiga psixolingvistikada til tizimi qonuniyatlari haqidagi bilim manbai sifatida qaraladi [16]. Shuning uchun ham tanqidiy fikrlashni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nutq faoliyatida amalga oshiriladi, deb bemaol aytishimiz mumkin. Nutqiy axborotni idrok etish va nutqni hosil qilish nafaqat nutq faoliyatining, balki til orqali amalga oshiriladigan o‘quv va kognitiv faoliyatning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkita tarkibiy qismidir. Tabiiyki, talabalar o‘quv faoliyatining asosiy shakli ingliz tilida nafaqat o‘qish, yozish, tinglash yoki gapirish, balki o‘qituvchi va o‘zlari o‘rtasida jonli va faol muloqotni o‘rnatishdir. Yuqorida aytilganidek, tanqidiy fikrlash individual va mustaqil fikrlashdir, biroq u bahs va munozaralarda, muhokamalarda va ommaviy chiqishlarda yaqqol gavdalanadi, shuning uchun talabalarda tanqidiy fikrlash malakalarini muvaffaqiyatli rivojlantirishda ishtirokchilarning muammoni tushunishdagi kommunikativ qobiliyatlari hal qiluvchi rolni o‘ynaydi.

Matnga asoslangan tamoyil (Text-Centered Principle) ning mohiyati – har xil turdagi, shakldagi yoki ko‘rinishdagi matnlardan iborat bolib, talabalarning tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Odatda, texnika oliy o‘quv yurtlari ingliz tili darslarida mavzu yuzasidan biz autentik matnlarga e’tibor qaratamiz. Ingliz tilini o‘qitish jarayoni boshqa (*xorijiy til*) til hamjamiyatining belgilarini ko‘rsatadigan aloqa birligi (*matn faoliyati mahsuloti*) sifatida haqiqiy matn bilan ishlashga asoslanishi kerak. Gap talabalar uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy ma’lumotlar haqida ketmoqda, uni o‘zlashtirgan holda, talabalar ma’lum darajada turli etnik-madaniy hamjamiyat vakilining lingvistik va madaniy xususiyatlari bilan tanishadilar va ularni talqin qilish orqali o‘z milliy madaniyatidan yaxshiroq xabardor bo‘ladilar.

Bir-birini to‘ldirish tamoyili (The Principle of Complementarity) o‘qituvchi va talabani narsalar, voqea-hodisalar va jarayonlarni turli rakurslardan o‘rganishga, ularning oqilona-mantiqiy va hissiy-majoziy mazmunini tushunishga yo‘naltiradi, muammoni ko‘p o‘lchovli prinsip sifatida qabul qilish, bir vaqtning o‘zida bir nechta qarama-qarshi shartlar va tamoyillarni ko‘rish yoki hisobga olish qobiliyatidir [10].

O‘quv faoliyatdan hayotiy vaziyatga o‘tish tamoyili (The Principle of transition from educational activity to a life situation) mustaqil faoliyat sharoitida ilgari shakllangan malakalarni qo‘llashni, egallangan bilimlardan amaliy topshiriqlarni hal qilishda foydalanishni, atrofdagi voqelikni o‘zgartirish va tahlil qilishni nazarda tutadi [14]. Tanqidiy fikrlash ijtimoiy fikrlash bo‘lganligi sababli, muammolarni, vazifalarni muhokama qilish uchun mavzularni tanlash ushbu xususiyatni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Refleksiya tamoyili (Reflection Principle) – o‘qituvchiga o‘quv faoliyatining maqsadi, mazmuni, usullari va texnikalarini tushunish orqali talabaning aqliy faoliyatini tashkil etishni belgilab beradi. U faoliyatdagi asosiy narsani noan’anaviy tarzda eslab qolishni ta’minlaydi hamda xulosalarni shakllantirish emas, balki talabaning voqelik yo‘llarini bilishi, uning semantik xususiyatlarini ochishi, talaba yoki o‘qituvchining ta’lim bosqichlarini aniqlashni ko‘zda tutadi [19]. Refleksiya orqali talaba o‘zi doimiy ravishda o‘rganayotganini va ko‘nikmalarni rivojlantirayotganini his qilib turadi.

Bir so‘z bilan aytganda biz taqdim etgan mazkur ishda texnik oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirish yuqorida keltirilgan uslubiy yondashuvlar va muhim tamoyillar asosida tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Van Duzer, C. Critical Literacy for adult English language learners [Text] / C. Van Duzer, M.C. Florez. - Washington, DC: National

Center for ESL Literacy Education, ERIC Digest EDOLE9907, 1999. - 151 p.

2. Avlayev, O.U., Jurayeva S.N., Mirzayeva S.R. “Ta’lim metodlari”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent: – «Navro‘z» nashriyoti nashriyoti. 2017. – 208 b.

3. Cornelius-White, J. (2009). Learner-Centered Instruction: Building Relationships for Student Success. SAGE Publications, Inc; 1st edition. ISBN-13: 978-1412954983. 240 pages.

4. Harfield, T. et al. Activity-based Teaching for Unitec New Zealand Construction Students. Emirates Journal for Engineering Research, 12 (1). – 2007. 57-63 pages.

5. Omonov, N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma / Toshkent, “Iqtisod-moliya”, 2016. – 200 b.

6. Tuychiev, A. (2022). TALABALARGA CHET TILLARINI O‘QITISHDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI. Jizzah, 139-143.

7. Алексеев, Н.А. Личностно-ориентированное обучение в школе. Ростов н/Д.: Феникс, 2006. – 332 с.

8. Беглова, Е.И. Средства русского языка в стилистическом аспекте [Текст]: учебное пособие по специальностям педагогического образования / Е.И.Беглова. - Стерлитамак: Стерлитамак. гос. пед. ин-т, 2001. - С.167-174.

9. Гамезо, М.В. Атлас по психологии [Текст]: информ.-метод. пособие к курсу «Психология человека» / М.В. Гамезо, И.А. Домашенко. - М.: Пед. общество России, 2001. – 182 с.

10. Гранатов, Г.Г. Метод дополнительности в развитии понятий [Текст]: монография / Г.Г.Гранатов. - Магнитогорск: МаГУ, 2000. - 195 с.

11. Капинос, В.И. Речеведческие понятия как лингвистическая основа совершенствования коммуникативной компетенции учащихся [Электронный ресурс] / В.И.Капинос // Обновление российской школы: доклады ИВВсерос. дистанционной августовской пед. конф. , 26 авг. -10 сент. 2002 г. —Режим доступа <http://www.eidos.ru/conf/>.

12. Леонтьев, А.А. Язык и речевая деятельность в общеобразовательной и педагогической психологии [Текст] / А. А. Леонтьев. – Воронеж: МОДЭК, 2001. – 356 с.

13. Львов, М.Р. Теория речевой деятельности [Текст] / М.Р. Львов. -М.: Академия, 2001. - 187 с.

14. Тўйчиев, А. (2022). А ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ: ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).

15. Tuychiev, A. (2023). РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ИНЖЕНЕРНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ ДЛЯ ПУБЛИЧНЫХ ВЫСТУПЛЕНИЙ ПОСРЕДСТВОМ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ. ММІТ, 228-231.

16. Щедровицкий, Г.П. Система педагогических исследований [Текст]: методологический анализ / Г.П. Щедровицкий // Педагогика и логика. - М., 1993. - С. 16-20.

EFFECTIVE TEACHING METHODOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE CLASSROOMS

Faxriddinova Muxlisa Mirzaakbar qizi

Namangan State Pedagogical Institute

2nd-year student of the Faculty of Foreign Languages and Literature

Email: faxriddinovamuxlisa69@gmail.com

Abstract: This article examines effective teaching methods in English language classrooms. The main purpose of the article is to identify modern approaches that enhance students' communicative skills. The research is conducted through classroom observation, group and pair work activities, and the use of communicative language teaching (CLT) along with interactive, technology-based teaching methods. The results show that these approaches help to increase students' self-confidence, classroom participation, speaking skills, and motivation.

Keywords: teaching methods, communicative approach (CLT), student-centered learning, technology, motivation

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tili darslarida samarali o‘qitish usullari o‘rganiladi. Maqolaning asosiy maqsadi o‘quvchilarni muloqot ko‘nikmalarini oshiradigan zamonaviy yondashuvlarni aniqlash hisoblanadi. Bunda tadqiqot o‘quvchilarni dars vaqtida kuzatish, guruh bo‘lib yoki sherik bo‘lib ishlash va muloqotga doir til o‘qitish (CLT) va texnologiyaga oid vositalardan interactive o‘qitish usullaridan foydalanib olib boriladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu metodlar o‘quvchilarni o‘ziga bo‘lgan ishonchini, darsdagi ishtiroki, gapirish ko‘nikmalari va motivatsiyasini oshirishga olib keladi.

Kalit so‘zlar: o‘qitish metodlari, kommunikative yondashuv (CLT), o‘quvchi markazida ta‘lim, texnologiya va motivatsiya

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные методы обучения на уроках английского языка. Основной целью